

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc. 03/30.01.2021.I.16.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**  

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**QODIROV URAL SAFAR O‘G‘LI**

**MILLIY IQTISODIYOTGA XOS XAVF-XATARLARNI TAHLIL**  
**QILISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI**

**08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi**  
**08.00.02 - Makroiqtisodiyot**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi**  
**AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
экономическим наукам**

**Dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD) on economic sciences**

**Qodirov Ural Safar o'g'li**

Milliy iqtisodiyotga xos xavf-xatarlarni tahlil qilishning ilmiy-nazariy asoslari.....3

**Кодиров Урал Сафар угли**

Научно-теоретические основы анализа рисков, присущих национальной  
экономике.....29

**Kodirov Ural Safar ugli**

Scientific and theoretical foundations of risk analysis inherent in the national  
economy.....57

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

List of published papers

Список опубликованных работ.....61

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc. 03/30.01.2021.I.16.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**  

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**QODIROV URAL SAFAR O‘G‘LI**

**MILLIY IQTISODIYOTGA XOS XAVF-XATARLARNI TAHLIL**  
**QILISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI**

**08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi**  
**08.00.02 – Makroiqtisodiyot**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi**  
**AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.2.PhD/Iqt5318 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash web-sahifasida ([www.tsue.uz](http://www.tsue.uz)) va "Ziyonet" Axborot-ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtiriladi.

**Ilmiy rahbar:**

**Rasulev Alisher Fayziyevich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Abdullayev Suyun Artikovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Abduraximova Saida Axmadjanovna**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Andijon davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.01.2021.I.16.03 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil «8» 10 soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100003, Toshkent shahri, I.Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99872) 239-28-72; faks: (99872) 239-01-49, (99872) 239-43-51. e-mail: [info@tsue.uz](mailto:info@tsue.uz)).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1769 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99872) 239-88-72; faks: (99871) 239-43-51. e-mail: [info@tsue.uz](mailto:info@tsue.uz)).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «22» 09 kuni tarqatildi.  
(2025-yil «22» 09 dagi 91 raqamli reyestr bayonnomasi).



**S.K. Xudoyqulov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,  
i.f.d., professor

**B.E. Mamaraximov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy  
kotibi, i.f.d., professor

**U.V. Gafurov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dunyo hamjamiyati bugungi kunda COVID-19 pandemiyasi oqibatlarini va davlatlar o'rtasida yuzaga kelayotgan turli-tuman geosiyosiy ziddiyatlar sababli global iqtisodiy ishlab chiqarish zanjirlarida hamda xalqaro mehnat taqsimoti jarayonlarida sezilarli uzilishlarni boshdan kechirmoqda. Bu kabi salbiy holatlar ta'sir etishi jihatdan milliy iqtisodiyotlarni tahlikali vaziyatga solib qo'ymoqda. Shu bilan birgalikda, bu kabi keskinliklar mamlakatning boshqa mamlakatlar bilan iqtisodiy aloqalarini kuchaytirish, dunyodagi mavqegini saqlab qolish va mustahkamlash, mamlakatda qulay investitsion muhit yaratish, mamlakatlarga xos xavf-xatarlarni aniqlash, tahlil qilish, baholash zarurligini taqozo etmoqda. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, "mamlakatlar iqtisodiy o'sishining sekinlashuvi, moliyaviy cheklovlarning kuchayishi, mamlakatlarda qarz darajasining ko'tarilishi, xususiy investitsiyalarning kamayishi va rivojlanayotgan mamlakatlarga xalqaro yordamlarning qisqarishi kabi jiddiy muammolarni boshdan kechirmoqda"<sup>1</sup>. Xalqaro valyuta fondi ma'lumotlariga ko'ra, "2024-yil yakuni bo'yicha global iqtisodiy o'sish darajasi 3,3% ni tashkil qilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich rivojlangan mamlakatlarda 1,7%, o'tish iqtisodiyoti mamlakatlariga nisbatan 4,4% ni tashkil qilgan. 2025-yilda esa global iqtisodiy o'sish 2,8% darajasida bo'lishi prognoz qilinmoqda"<sup>2</sup>. Bularning barchasi milliy iqtisodiyotga xos xavf-xatarlarni tahlil qilishning ilmiy-nazariy asoslarini yanada takomillashtirishni taqozo etadi.

Xalqaro yetakchi oliy va ilmiy tadqiqot muassasalarining izlanish sohalarida mamlakatlar iqtisodiyotiga ta'sir ko'rsatadigan risklar, xavf-xatarlarni tahlil qilish va baholashga qaratilgan ilmiy va amaliy tadqiqotlar olib borilmoqda. Mamlakatga kiritilayotgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmidagi o'zgarishlarning mamlakatdagi investitsion muhitga ta'sirini tahlil qilish, moliyaviy, siyosiy va iqtisodiy omillardagi o'zgarishlarni mamlakat iqtisodiy xavfsizligiga ta'siri, mamlakatning iqtisodiy erkinlik darajasidagi o'zgarishlarning investitsion muhitga ta'sirini tahlil qilish, davlatning fiskal balansidagi tafovutlarni tahlil qilish, davlatning tashqi qarzini qoplash bilan bog'liq masalalar bu boradagi tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

O'zbekistonda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar, xususan, iqtisodiyotni erkinlashtirish va xususiy sektorni rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar mamlakatning xalqaro moliyaviy bozorlarda ishonchliligini oshirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, mamlakatda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash mamlakatlarga xos xavf-xatarlar tahlil qilinishi, qulay investitsion muhit yaratilishi, tashqi qarz, valyuta konvertatsiyasi va to'lov qobiliyatiga oid xavf-xatarlarni aniqlash va tahlil qilishni talab etmoqda. Bugungi kunda mamlakat tashqi qarzi oshib borayotgan bir paytda davlat tomonidan chuqur o'ylangan istiqbolli siyosat yuritilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, mamlakat

---

<sup>1</sup> World Bank Report (2023) "Evolution of the World Bank Group – A Report to Governors," for the April 12, 2023 Development Committee Meeting. DC2023-0002

<sup>2</sup> International Monetary Fund. 2024. Real GDP growth. [https://www.imf.org/external/datamapper/ngdp\\_rpch@weo/oemdc/advect/weoworld](https://www.imf.org/external/datamapper/ngdp_rpch@weo/oemdc/advect/weoworld)

tashqi qarzining YAIMga nisbatan belgilangan me'yorini ushlab turish, fiskal balansning belgilangan normada bo'lishligi, to'lov balansi, inflyatsiya va ishsizlik darajalarining belgilangan normada bo'lishini ta'minlash, mamlakatga kiritilayotgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmini oshirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bu esa, O'zbekistonda bugungi kunga qadar mamlakatlarga xos xavf-xatarlarni tahlil qilish bilan bog'liq yetarlicha tadqiqotlar amalga oshirilmaganligi jihatdan, muhim investitsiya qarorlarini qabul qilish jihatidan hamda ushbu xavf-xatarlarni zamonaviy model va metodologiyalar asosida tahlil qilish mavzuning dolzarbligini belgilab beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi PF-16-son "“O'zbekiston – 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida”, 2024-yil 21-fevraldagi PF-37-son "“O'zbekiston – 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida”, 2024-yil 20-iyundagi PF-91-son “Xalqaro reyting va indekslar bilan ishlash tizimini takomillashtirish hamda ushbu sohada parlament nazoratini kuchaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”, 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son "“O'zbekiston – 2030” strategiyasi to'g'risida”gi, 2017-yil 2-sentabrdagi PF-5177-son “Valyuta siyosatini liberallashtirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida”gi farmonlari, 2019-yil 25-fevraldagi PQ-4210-son “O'zbekiston Respublikasining xalqaro reytinglar va indekslardagi o'rnini yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori va mazkur sohaga doir boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy hamda madaniy-ma'rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Mamlakatga xos xavf-xatarlarni tahlil qilish masalalari doimo xorijlik olimlar tomonidan ilmiy tadqiqotlarining diqqat markazida bo'lgan. Jumladan, B.Bhalla, C.B.Erb, C.R.Harvey, T.E.Viskanta, B.McGowan, S.E.Moeller, V.Stoever, J.Talbott, R.W.Roll, Misko Dzidrov, Marjan Dzidrov, J.Vurgler, H.J.Ryoo, G.Smith, S.Fisher, R.Sahay singari xorijlik olimlar mazkur sohada ilmiy tadqiqot ishlarini olib borganlar<sup>3</sup>. MDH

---

<sup>3</sup>B.Bhalla (1983). How corporations should weigh up country risk. Euro money, June, pp. 66–72.; C.B. Erb, C.R.Harvey, T.E. Viskanta, (1996). Expected returns and volatility in 135 countries. Journal of Portfolio Management, 22(3), pp. 46–58.; B.McGowan and S.E. Moeller, (2009). A Model for Making Foreign Direct Investment Decisions Using Real Variables for Political and Economic Risk Analysis. Managing Global Transitions International Research Journal, 7(1), pp. 27–44.; W.Stoever (2002). Attempting to resolve the attraction-aversion dilemma: A study of FDI policy in the Republic of Korea. Transnational Corporations, 11(1), pp. 49–76.; J.Talbott and R.W. Roll, (2001). Why many developing countries just aren't. The Anderson School at UCLA, Finance Working Paper No. 19-01.; M.Dzidrov and M.Dzidrov (2010). Political and Economic Risk Analysis Case study of Macedonia. The Conference on Web Based Business Management, pp. 552–556.; J.Wurgler (2000). Financial markets and the allocation of capital. Journal of Financial Economics, 58 (1), pp. 187–214.; H.J.Ryoo and G.Smith (2002). Korean stock prices under price limits: Variance ratio tests of random walks. Applied Financial Economics, 12 (8), pp. 545–553.; S.Fischer and R.Sahay (2000). Taking stock. Finance and Development, 37(3), pp. 2–11.;

mamlakatlarida bu borada F.Nayt, A.G.Sholomitskiy, E.Vinokurov, S.Dyankov, J.Chen, T.Yerjanov, S.Scheglova, A.Mirzayev, A.Korovkin, I.Korolev, A.Polejajev singari olimlar ilmiy tadqiqot olib borganlar<sup>4</sup>.

O‘zbekistonda mamlakatlarga xos xavf-xatarlarni tahlil qilish borasidagi ayrim masalalar, shu jumladan, makroiqtisodiy nuqtayi nazardan yondashuvlar N.M.Maxmudov, A.F.Rasulev, B.B.Berkinov, D.Ortiqova, X.P.Abulqosimov, X.S.Asatullayev, A.A.Mamatov, T.T.Jo‘rayev, T.M.Baymuratov, M.T.Asqarova, B.O.Tursunov, J.Sh.To‘xtabayev, X.F.O‘ktamov, H.A.Hakimov, V.A.Bahriddinov, M.R.Elbayeva, M.K.Olimov, S.X.Xasanov, O.M.Hasanov, M.Q.Maxmudova, G.N.Nigmatullayeva, F.N.Bayboboyeva, S.O.Xoldorov va boshqa olimlar<sup>5</sup>ning ilmiy izlanishlarida o‘z aksini topgan.

Mazkur tadqiqot ishi doirasida izlanish olib borgan olimlarning tadqiqotlari ilmiy-uslubiy manba va asos bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, muallifning

---

<sup>4</sup> Ф. Найт. Понятие риска и неопределённости. // Альманах: теория и история экономических и социальных институтов и систем. М., Вып. 5с. 23-24., А.Г. Шоломицкий Теория риска. Выбор при неопределённости и моделирование риска. М.: Издательский дом ГУ ВШЭ, 2005. 400 с. E. Vinokurov. The CIS, the EU, and Russia: The Challenges of Integration, (Palgrave Macmillan, London, 2007, with K. Malfliet and L. Verpoest); S. Dyankov. Transition in Perspective: 25 Years after the Fall of Communism". ПИЕ. May 15, 2014.; Jun Chen, T. Yerzhanov, S. Shcheglova, A. Mirzayev. Assessing privatization efficiency in CIS countries: financial, non-financial, and GDP-linked indicators 2 (2023), Articles, pages 157-174; A. Korovkin, I. Korolev, A. Polejajev. Analysis of labour markets in CIS countries: an macroeconomic approach. Aachen : Shaker, ISBN 3-8322-4799-8. - 2006, p. 21-43

<sup>5</sup> N.Maxmudov Makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy o‘shishni ta‘minlashda pul-kredit siyosatining rolini oshirish yo‘llari.//Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – T.: TDIU. 2015-yil, 23-29 b., O‘zbekiston: jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, innovatsion taraqqiyot va milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirish/O‘zFA, Iqtisodiyot in-ti; A.F. Rasulevning tahriri ostida. - T.: Konsauditinform-Nashr, 2011. - 408 b.; B.Berkinov Makroiqtisodiy barqarorlikni ta‘minlash yo‘llari. Monografiya. – T.: TDIU, 2011; Ortiqova D. Iqtisodiy xavfsizlik: (o‘quv qo‘llanma). -T.:TDIU, Iqtisodiyot, 2011. – 98 b.; X.P. Abulqosimov, M.H. Abulqosimov. Iqtisodiy xavfsizlik: nazariya va amaliyot. O‘quv qo‘llanma.-T.:Noshirlik yog‘dusi, 2019.-620 b.; X.S.Asatullaev, A.A.Mamatov, T.T.Jo‘raev. Iqtisodiy xavfsizlik (Darslik). -T.: “TMI nashriyoti”, 2023. 654-bet.; T.M. Баймуратов Рискология: I часть : учебник / Т. М. Баймуратов. - Ташкент : Iqtisod-moliya, 2023. - 320 с. B.O. Tursunov Iqtisodiy xavfsizlik. O‘quv qo‘llanma.-T.: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matba uyi”, 2021. 344-bet.; J.Sh.To‘xtabaev, X.F.O‘ktamov. Xavfsizlik va texnologiya. O‘quv qo‘llanma.-T.: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matba uyi”, 2021. 208-bet; H.A. Hakimov. O‘zbekistonning kredit riskini baholash: iqtisodiy barqarorlik va xavf omillari tahlili. “Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 2025-yil, mart. № 3-son. 4 bet.; V.A. Bahriddinov. Mamlakatlarga xos xatarlarni baholash metodologiyalari tahlili. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot, 2(8). 2024.; M.R.Elbayeva. Soliq tizimida soliq risklarini boshqarishni takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dis. avtoreferati. – T.: TDIU, 2023. 13-b.; M.K.Olimov. Sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirish asosida hududlar iqtisodiy xavfsizligini ta‘minlash. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dis. avtoreferati. – T.: TDIU, 2025. –18 b.; B.O.Tursunov. Korxonalar moliyaviy xavfsizligini ta‘minlash metodologiyasini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha fan doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dis. avtoreferati. – T.: TDIU, 2021.; S.X.Xasanov. Mintaqa iqtisodiy xavfsizligini ta‘minlash mexanizmini takomillashtirish (Qashqadaryo viloyati misolida). Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dis. avtoreferati. – T.: TDIU, 2023.; O.M. Hasanov. Ekologik xavfsizlikni ta‘minlashda moliyaviy mexanizmlar rolini oshirish. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dis. avtoreferati. – T.: TDIU, 2025. –51 b.; F.N.Bayboboyeva. Kichik biznes korxonalarida iqtisodiy xavfsizlikni ta‘minlash metodologiyasini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha fan doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dis. avtoreferati. – T.: TDIU, 2025. –15 b.; M.R.Elbayeva. Soliq tizimida soliq risklarini boshqarishni takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dis. avtoreferati. – T.: TDIU, 2023.; G.N.Nigmatullayeva. O‘zbekiston elektr energetikasi sanoatini iqtisodiy xavfsizligini ta‘minlash mexanizmlarini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dis. avtoreferati. – T.: TDIU, 2022.; M.Q.Maxmudova. Tijorat banklari faoliyatida risklarni boshqarish usullarini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dis. avtoreferati. – T.: TDIU, 2020.; S.O.Xoldorov. Moliyaviy risklarning tijorat banklari samaradorligiga ta‘sirini baholash. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dis. avtoreferati. – T.: TDIU, 2025.

fikricha, hozirga qadar mamlakatlarga xos xavf-xatarlarni iqtisodiy qarorlar qabul qilish nuqtayi-nazardan tahlil qilish masalalari mahalliy olim va tadqiqotchilar tomonidan alohida mamlakat darajasida yetarlicha yoritilmagan. Yuqorida keltirilgan masalalarni mamlakat iqtisodiyoti xususiyatlarini hisobga olgan holda xavf-xatarlarni tadqiq etish zarurati mavzuni tanlashga asos sifatida xizmat qildi.

**Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi.** Mazkur tadqiqot ishi Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti indikatorlari asosida "Mamlakatlarga xos xatarlarni tasniflash tizimi" dagi o'rnini baholashning O'zbekiston uchun "milliy modeli"ni ishlab chiqish" mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** milliy iqtisodiyotga xos xavf-xatarlarni tahlil qilishning ilmiy-nazariy asoslarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

milliy iqtisodiyotdagi xavf-xatarlar darajasini tahlil qilishning ilmiy-nazariy asoslarini o'rganish;

mamlakat iqtisodiyotidagi xavf-xatarlarini tahlil qilishga bo'lgan ilmiy-uslubiy yondashuvlarni ko'rib chiqish;

mamlakatga xos xavf-xatarlarni tahlil qilish bo'yicha xorijiy mamlakatlar tajribasini O'zbekiston iqtisodiyotida joriy etish imkoniyatlarini tahlil qilish;

xorijiy investitsiyalar xavf-xatari matritsasi, "CRAM" va Xalqaro mamlakat xavf-xatarlari bo'yicha metodologiyalaridan foydalangan holda O'zbekistonda mamlakat xavf-xatariga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi xavf-xatarlarni tahlil qilish;

O'zbekistonda siyosiy, iqtisodiy va moliyaviy omillar bilan bog'liq xavf-xatarlar bo'yicha mintaqaviy tafovutlarni tahlil qilish;

milliy iqtisodiyotga xos xavf-xatarlarning O'zbekistondagi iqtisodiy ko'rsatkichlar yoki taraqqiyotga ta'sirini tahlil qilish.

**Tadqiqotning obyekti** bo'lib O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti hisoblanadi.

**Tadqiqotning predmeti** bo'lib milliy iqtisodiyotga xos xavf-xatarlarni tahlil qilish jarayonidagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda ilmiy abstraksiyalash, mantiqiy fikrlash, tahlil va sintez, ilmiy bilishning dialektik yondashuv, kompleks yondashuv, qiyosiy tahlil, guruhlash, matematik-statistika va ekonometrik usullari qo'llanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

nazariy-uslubiy yondashuvga ko'ra "mamlakat xavf-xatari" tushunchasining iqtisodiy mazmuni mamlakatdagi investitsiya muhiti, biznes faoliyati va umumiy iqtisodiy barqarorligiga ta'sir ko'rsatuvchi iqtisodiy, siyosiy, moliyaviy, ijtimoiy va institutsional omillarning o'zaro ta'siri natijasida yuzaga keladigan noaniqliklar va potensial xavflar majmui jihatidan takomillashtirilgan;

hududlar bo'yicha mintaqaviy nomutanosibliklarni aniqlash asosida hududlar kesimida hisoblanadigan asosiy xavf-xatarlar tasnifi va milliy iqtisodiyotga xos xavf-xatarlarni baholashda qo'llaniladigan indikatorlarni xavf darajasiga ko'ra "past xavf" (0 – 0,33 orasida), "o'rtacha xavf" (0,34 – 0,66), "yuqori xavf" (0,67 – 1,0) oralig'ida baholash taklifi asoslangan;

makroiqtisodiy xavf-xatar ko'rsatkichi sifatida haqiqiy va potensial YAIM orasidagi uzilishi miqdoriga makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning ta'siri real ishlab chiqarish hajmi ( $p = 0,000 < 0,001$ ), inflyatsiya ( $p = 0,000 < 0,001$ ), ayirboshlash kursi ( $p = 0,049 < 0,05$ ), davlat qarzi ( $p = 0,032 < 0,05$ ), byudjet defitsiti ( $p = 0,096 > 0,05$ ), savdo balansi defitsiti ( $p = 0,086 > 0,05$ ) qiymatlari orqali asoslangan;

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti metodologiyasi asosida O'zbekiston uchun moslashtirilgan to'lov tajribasi, moliyaviy holat va iqtisodiy vaziyat mezonlariga tayanilgan xavf-xatarni baholash modeli asosida 2027-yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

milliy iqtisodiyotga xos xavf-xatarlarni tahlil qilishning takomillashtirilgan konseptual asoslari ishlab chiqilgan;

mamlakatga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimiga siyosiy va iqtisodiy xavf-xatar omillarining o'zaro bog'liqligini o'rganuvchi regressiya modeli ishlab chiqilgan;

mamlakatga xos xavf-xatar profili miqdoriy baholangan va asosiy determinantlar aniqlangan;

O'zbekiston uchun mamlakatga xos xavf-xatarlarni baholashning kompleks metodologiyasi qo'llanilgan va moslashtirilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijasida olingan ilmiy natijalarning ishonchliligi ishda qo'llanilgan metodologik yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, axborotlar bazasining rasmiy manbalardan olinganligi, keltirilgan tahlil natijalarining iqtisodiy-matematik usullar vositasida asoslanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarining amalda sinovdan o'tkazilganligi hamda olingan natijalarning yuqori tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi. Ushbu ma'lumotlar manbalari haqiqiy va dolzarb deb hisoblanganligi sababli, ma'lumotlar ishonchliligi ushbu manbalardan ma'lumotlarni tanlash tufayli ta'minlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati O'zbekiston misolida mamlakatga xos xavf-xatarlarini tahlil qilishga qaratilgan yagona tadqiqotning mavjud emasligi sababli, makroiqtisodiy xavf-xatarlarni tahlil qilish metodologiyasini hozirgi zamon talablari va iqtisodiyotni erkinlashtirish maqsadlariga mos ravishda takomillashtirish, rivojlantirish va boyitishga xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati O'zbekiston Respublikasi milliy statistika qo'mitasi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Markaziy banki tomonidan mamlakatlarga xos xavf-xatarlarni tahlil qilish metodologiyasini yanada takomillashtirish, shuningdek, muhim investitsiya qarorlarini qabul qilish yuzasidan joriy etilayotgan qarorlar, dasturlar va chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish hamda ularni amalga oshirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi. Shuningdek, tadqiqot natijalaridan "Iqtisodiy xavfsizlik", "Iqtisodiyot nazariyasi", "Makroiqtisodiyot", "Milliy va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlik" va "Iqtisodiy siyosat" fanlari bo'yicha darslik, o'quv dasturlari, va uslubiy qo'llanmalarni tayyorlashda foydalanish mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Mamlakatlarga xos xavf-xatarlarni tahlil qilishning ilmiy-nazariy asoslari bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

nazariy-uslubiy yondashuvga ko'ra "mamlakat xavf-xatari" tushunchasining iqtisodiy mazmunini mamlakatdagi investitsiya muhiti, biznes faoliyati va umumiy iqtisodiy barqarorligiga ta'sir ko'rsatuvchi iqtisodiy, siyosiy, moliyaviy, ijtimoiy va institutsional omillarning o'zaro ta'siri natijasida yuzaga keladigan noaniqliklar va potensial xavflar majmui jihatidan takomillashtirishga oid nazariy va uslubiy materiallardan oliy ta'limning 60410100–Iqtisodiyot bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalari uchun tavsiya etilgan "Iqtisodiy siyosat" nomli o'quv qo'llanmani tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 9-iyuldagi 258-sonli buyrug'i). Mazkur ilmiy natijalardan o'quv adabiyotlarida foydalanish talabalarda makro darajada xavf-xatar tushunchasining mohiyatini to'g'ri va kengroq tushunishlariga imkon yaratgan;

hududlar bo'yicha mintaqaviy nomutanosibliklarni aniqlash asosida hududlar kesimida hisoblanadigan asosiy xavf-xatarlar tasnifi va milliy iqtisodiyotga xos xavf-xatarlarni baholashda qo'llaniladigan indikatorlarni xavf darajasiga ko'ra "past xavf" (0 – 0,33 orasida), "o'rtacha xavf" (0,34 – 0,66), "yuqori xavf" (0,67 – 1,0) oralig'ida baholash taklifidan O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 24-dekabdagi "2025-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi O'RQ-1011-sonli qonunining 6-moddasini shakllantirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2025-yil 28-iyuldagi 3/dn-158-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi O'zbekistonda hududlarning o'ziga xos xatarlarini aniqroq baholash imkonini berib, mahalliy byudjetlar daromadlari prognozlaridan oshgan qismini qoplash, respublika byudjetidan byudjetlararo transfertlar ajratishning miqdoriy qiymatlarini hisoblash orqali mahalliy byudjet parametrlarini ishlab chiqishga xizmat qilgan;

makroiqtisodiy xavf-xatar ko'rsatkichi sifatida haqiqiy va potensial YAIM orasidagi uzilishi miqdoriga makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning ta'siri real ishlab chiqarish hajmi ( $p = 0,000 < 0,001$ ), inflyatsiya ( $p = 0,000 < 0,001$ ), ayirboshlash kursi ( $p = 0,049 < 0,05$ ), davlat qarzi ( $p = 0,032 < 0,05$ ), byudjet defitsiti ( $p = 0,096 > 0,05$ ), savdo balansi defitsiti ( $p = 0,086 > 0,05$ ) qiymatlari orqali asoslash taklifidan O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 24-dekabdagi "2025-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi O'RQ-1011-sonli qonunining 9-moddasini shakllantirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2025-yil 28-iyuldagi 3/dn-158-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi O'zbekiston iqtisodiyotida makro-fiskal ko'rsatkichlarga bir martalik ichki va tashqi shoklarning ta'siri va ularga iqtisodiyotning bardoshlilikini oshirish hamda xatarlar ta'sirini yumshatish choralari ishlab chiqishga xizmat qilgan;

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti metodologiyasi asosida O'zbekiston uchun moslashtirilgan to'lov tajribasi, moliyaviy holat va iqtisodiy vaziyat mezonlariga tayanilgan xavf-xatarni baholash modeli asosida 2027-yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko'rsatkichlaridan O'zbekiston Respublikasining

2024-yil 24-dekabrda “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat, budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-1011-sonli qonunining 3-moddasini shakllantirishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2025-yil 28-iyuldagi 3/dn-158-sonli ma‘lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi 2025-2027-yillar uchun mo‘ljallangan makroiqtisodiy va makroprudensial ko‘rsatkichlar prognozini ishlab chiqishga xizmat qilib, O‘zbekistonning xatar darajasini yaxshilashdagi ehtimoliy natijalarni turli noaniqliklar (uncertainty) sharoitida sinovdan o‘tkazish imkonini yaratgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari ham mahalliy, ham xalqaro ilmiy jurnallarda nashr etilgan. Jumladan, mazkur tadqiqot ishi natijalari 3 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.** Mavzu bo‘yicha jami 12 ta ilmiy ish, shu jumladan, Oliy Attestatsiya Komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola (jumladan, 3 tasi respublika, 3 tasi xorijiy jurnallarda) va 6 ta ma‘ruza tezislari (shundan 3 tasi xalqaro xorijiy konferensiya materiallari to‘plamida) chop qilingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya ishi tuzilishi jihatidan kirish, 3 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 128 betni tashkil etdi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari hamda obyekt va predmeti shakllantirilgan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati yoritilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar ushbu qismda keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Milliy iqtisodiyotdagi xavf-xatarlar darajasini tahlil qilishning ilmiy-nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida milliy iqtisodiyotga xos xavf-xatarlar tushunchasi, uning makroiqtisodiy kontekstdagi o‘rni, ushbu tushunchaning mohiyati, milliy iqtisodiyotga xos xavf-xatarlar darajasini tahlil qilish zaruriyati, milliy iqtisodiyotga xos xavf-xatarlar darajasining tahlil qilishga bo‘lgan ilmiy-uslubiy yondashuvlar tahlil etilgan, xavf-xatarlar darajasini aniqlash mezonlari bo‘yicha aniqlangan natijalar tizimlashtirilgan.

Risk, xavf xatar tushunchalari qo‘llanilish sohasiga ko‘ra korxonalar, mintaqalar, mamlakat va xalqaro miqyosda qo‘llaniladi. Tadqiqot ishida mamlakat miqyosidagi risk (xavf-xatar)lar yoritilgan.

Xavf-xatar (risk)<sup>6</sup> tushunchalari mamlakatning umumiy iqtisodiy holatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadigan muhim elementlardan biri hisoblanadi. Mamlakat

---

<sup>6</sup> Izoh: Ushbu tadqiqotda “risk”, “xavf-xatar”, “tahlika”, “tahdid” kabi tushunchalar ma‘no-mazmun jihatidan o‘zaro yaqin va ko‘p hollarda sinonim atamalar sifatida foydalaniladi. Shu sababli, tadqiqot ishini yoritishda noaniqliklarni oldini olishda ushbu tushunchalar umumlashtirilib, “xavf-xatar” atamasi sifatida qo‘llanildi.

iqtisodiyoti kontekstidagi xavf-xatar ma'lum bir mamlakatdagi noqulay makroiqtisodiy va siyosiy hodisalar tufayli yuzaga keladigan potensial moliyaviy yo'qotishlar sifatida ifodalanadi.

Xavf-xatar darajasini tahlil qilish va boshqarish mamlakatdagi makroiqtisodiy va siyosiy muhit bilan bog'liq bo'lib, kelajak tendensiyalari va muammolarni prognoz qilish uchun juda muhimdir. Risk, xavf-xatar tahlili, uni baholash va tahlil qilish ko'plab olimlar va tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan (1-jadval).

## 1-jadval

### Makro kontekstda xavf-xatar (risk, tahlika, tahdid) tushunchasi mazmunini aniqlashga bo'lgan turli ilmiy yondashuvlar<sup>7</sup>

Tadqiqotchilar	Yondashuvi
M.R. Greene, J. Trieschman	Xavf-xatar bu - ma'lum bir vaqt oralig'ida yuzaga keladigan natijalarning o'zgarishi va natijalarga salbiy ta'sir ko'rsatadigan hodisalarning noaniqligi yoki oldindan aytib bo'lmaydigan holat.
J.F. Outreville	Xavf-xatar bu - ma'lum bir mamlakatdagi noqulay makroiqtisodiy va siyosiy hodisalar tufayli yuzaga keladigan potensial moliyaviy yo'qotish.
Misko va Marjan Dzidrovlar	Xavf-xatar bu - bir mamlakatdagi ishbilarmonlik muhitida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan o'zgarishlar bilan bog'liq bo'lib, bu chet el investitsiyalarining rentabelligini pasaytirishi mumkinligi bilan ifodalanadi.
Y. Fan, M. Stevenson	Xavf-xatarlarni boshqarish bu - mamlakatning makroiqtisodiy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatishdan oldin xatarlarni aniqlash va kamaytirish bo'yicha ko'plab qadamlarni o'z ichiga olgan tizimli yondashuv
B. Bhalla	Mamlakatga xos xavf-xatarni baholashga asoslangan dastlabki tadqiqot muallifi bo'lib transmilliy kompaniyalar uchun mamlakatdagi keng qamrovli makroiqtisodiy vaziyat haqida ma'lumot beradigan model ishlab chiqqan.
X.P. Abulqosimov	Xavf-xatar bu - jamiyat, davlat, xo'jalik subyekti, shaxs hayot faoliyatiga, rivojlanishga tahdid soluvchi potensial yoki real kuch, omil, shart-sharoit va h.k.
D.A. Ortiqova	Tahdid bu - jamiyat, davlat va ularning subyektlari, alohida shaxsning normal hayot faoliyatiga, ular manfaatlarini ro'yobga chiqarishga to'sqinlik qiladigan, ziyon zahmat keltiradigan, xavf-xatar tug'diradigan omillar va hokazolardir.
Mualliflik ta'rifi	Mamlakat xavf-xatari – bu ma'lum bir mamlakatdagi investitsiya muhiti, biznes faoliyati va umumiy iqtisodiy barqarorligiga ta'sir ko'rsatuvchi iqtisodiy, siyosiy, moliyaviy, ijtimoiy va institutsional omillarning o'zaro ta'siri natijasida yuzaga keladigan noaniqliklar va potensial xavflar yig'indisi.

Mamlakat miqyosida xavf-xatarlarning yuzaga kelish ehtimoli, tabiiy ravishda, mamlakatning iqtisodiy salohiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi va iqtisodiyotni xorijiy investitsiyalar hamda ichki iqtisodiy faoliyat uchun umumiy jozibadorligini pasaytirishi mumkin.


O'rganilgan adabiyotlar tahlili shuni aks ettiradi-ki, tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan izlanishlar milliy iqtisodiyotga xos xavf-xatarlarni baholash, tahlil qilish asosidagi yondashuvlari ko'pchilik hollarda bir-birini to'ldirgan tadqiqotlar hisoblanadi. Ushbu mavzuda yetarlicha xorijiy ilmiy tajriba mavjud, biroq mahalliy olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar maqsadi, ko'lami,

<sup>7</sup> Ilmiy adabiyotlar asosida muallif tomonidan tuzilgan.

yondashuvi jihatidan asosiy yo‘nalish mamlakatda iqtisodiy xavfsizlik, makroiqtisodiy barqarorlikni ta‘minlashga qaratilgan tadqiqotlar hisoblanadi. Mamlakat iqtisodiy xavfsizligi, makroiqtisodiy barqarorlik ta‘minlanishi milliy iqtisodiyotga xos xavf-xatarlarni aniqlash, tahlil qilish zaruratini yuzaga keltiradi.

Bir qancha olim va tadqiqotchilar mamlakat xavf-xatarlarini toifalarga ajratadilar. Boshqa olimlar tomonidan esa mamlakat xavf-xatari faqat iqtisodiy va siyosiy xavf-xatar sifatida tasniflanadi. Ushbu xavf-xatar turlariga transfer xavf-xatari bu hukumatning mamlakatda kapital harakatini cheklash usuli sifatida qaraladi<sup>8</sup>. Mamlakat miqyosida xavf-xatarning yana bir turi joylashuv xavf-xatari bo‘lib, u mamlakatning xorijiy investorlar uchun jozibadorligini belgilaydigan muhim xavf-xatar omili hisoblanadi. Mamlakat qarzi oshib borayotgan bir paytda, bu davlatning o‘z qarzi majburiyatlarini bajara olmaslik xavf-xatarini oshiradi. Mamlakat iqtisodiy taraqqiyotiga ta‘sir qiladigan yana bir xavf-xatar turi bu siyosiy xavf-xatardir. Ushbu xavf-xatar turi siyosiy beqarorlik, urushlar, byurokratiya va korrupsiyadan iborat bo‘lib, bu mamlakatning makroiqtisodiy holati va atrof-muhitiga halokatli darajada ta‘sir ko‘rsatadi.

Shuningdek, milliy iqtisodiyotga xos xavf-xatarlar xususida amalga oshirayotgan tadqiqotimizda makrodarajada xavf-xatarlar tushunchasini tasniflash zarurati paydo bo‘ldi (1-rasm).



**1-rasm. Makrodarajadagi xavf-xatarlar tasnifi<sup>9</sup>**

1-rasmda xavf-xatar tushunchasi iqtisodiy, moliyaviy va siyosiy jihatdan turkumga ajratilgan bo‘lib, ushbu turkumlarda mamlakatga xos xavf-xatarlar tasniflangan. Shuningdek, makrodarajadagi xavf-xatarlarning oldi olinishi, baholanishi va tahlil qilinishi natijasida mamlakatda barqaror iqtisodiy o‘sinh

<sup>8</sup> Bank of Jamaica, (2005). Country and transfer risk: <https://e2gobqetsqs.exactdn.com/wp-content/uploads/2020/02/Standards-Country-and-Transfer-Risk.pdf>

<sup>9</sup> O‘rganilgan adabiyotlar asosida muallif tomonidan tuzildi.

ta'minlanishiga, ehtiyojlarning optimal darajada qondirilishiga, ratsional boshqaruv tizimining amal qilinishiga, milliy va xalqaro darajada mamlakat iqtisodiy manfaatlarining himoyalaniishi kabi natijalarga erishish imkoniyatini paydo qiladi, boshqa so'z bilan aytganda mamlakatda xavf-xatarlarning bartaraf etilishi, iqtisodiy xavfsizlikning ta'minlanishi makroiqtisodiy barqarorlikka erishishga yordam beradi.

Mamlakatga xos xavf-xatarlar xususida berilgan yuqoridagi ma'lumotlardan kelib chiqib, mamlakat xavf-xatari tushunchasiga mualliflik ta'rifini quyidagicha belgilab oldik. Mamlakat xavf-xatari – bu ma'lum bir mamlakatdagi iqtisodiy, siyosiy, moliyaviy, ijtimoiy va institutsional omillarning o'zaro ta'siri natijasida yuzaga keladigan noaniqliklar va potensial xavf-xatarlar yig'indisi bo'lib, ular investitsiya muhiti, biznes faoliyati va umumiy iqtisodiy barqarorlikka ta'sir qiladi.

Bu xavf-xatarlar mamlakatning ichki siyosati, iqtisodiy ko'rsatkichlari, moliyaviy tizimning barqarorligi, ijtimoiy tenglik darajasi, infratuzilma rivojlanishi va global iqtisodiy sharoitlar kabi ko'p qirrali omillarga bog'liq. Mamlakat xavf-xatari to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimining hajmi va sifatiga, mahalliy korxonalar faoliyatining samaradorligiga, shuningdek, iqtisodiy o'sish va aholining farovonligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Mamlakatdagi xavf-xatarlarni tahlil qilish muayyan mezonlar asosida tadqiqotlar orqali amalga oshiriladi. Mamlakat xavf-xatarlarini har tomonlama tahlil qilish uchun mamlakatdagi sifat va miqdoriy ma'lumotlar bazasini yagona indeks yoki reytingga birlashtirish kerak. Milliy iqtisodiyotga xos xavf-xatarlarni tahlil qilish va baholash bo'yicha ko'plab modellar va metodologiyalar mavjud.

## 2-jadval

### Milliy iqtisodiyotga xos xavf-xatarlar darajasini tahlil qilish bo'yicha metodologiyalarning qiyosiy tahlili<sup>10</sup>

Metodologiya nomi	Yondashuvi	Afzalliklari	Kamchiliklari
IHTTning CRAM modeli	mamlakatning mavjud xatarlarni boshqarish uchun mo'ljallangan kompleks model	Standart va tizimli yondashuv, ko'p omilli tahlil, ma'lumotlar ishonchliligi; ma'lumot sohasining kengligi	mahalliy sharoitlarni to'liq hisobga olmaslik; qisqa muddatli o'zgarishlarga sezgirlikning pastligi; ma'lumotlarning subyektivligi
ICRG modeli	mamlakatda siyosiy, iqtisodiy va moliyaviy xavf-xatar omillarini o'z ichiga olgan 22 ta o'zgaruvchini tahlil qiladigan modeli	Keng qamrovli tahlil; uzoq muddatli ma'lumotlar bazasi; ishonchli manbalar; moslashuvchanlik; bashoratli qobiliyat va hk.;	ma'lumotlar cheklovlari; qisqa muddatli o'zgarishlarga sezgirlikning pastligi; mintaqaviy xususiyatlarning cheklangan qamrovi
FIRM modeli	Chet el investitsiyalari uchun mamlakat xavf-xatarlarini baholash, asosan investorlar uchun qaror qabul qilishni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan matritsa	Foydalanish qulayligi; investitsiyalar uchun muhim omillarga e'tibor; tezkor tahlil imkoniyati; investorlar uchun moslashuvchanlik	Cheklangan kuzatuv; iqtisodiy va siyosiy omillarni to'liq qamrab olmasligi; subyektiv baholashga tayanadi; yirik miqyosli loyihalar uchun yetarli emas
MOODY'C MACRI modeli	Makroiqtisodiy xavf-xatarlarini baholash, asosan kredit reytinglari va moliyaviy barqarorlikka qaratilgan kompleks tahlil modeli	Makroiqtisodiy tahlil; nufuzli manbalar; global moliyaviy bozorlar bilan integratsiya; uzoq muddatli prognozlarga moslashuvchanlik	Moliyaviy va iqtisodiy omillarga e'tibor; mahalliy, siyosiy va ijtimoiy omillarni cheklangan qamrovi; pullik kirish va ma'lumotlar cheklovlari

<sup>10</sup> O'rganilgan adabiyotlar asosida muallif tomonidan tuzildi.

Qo‘shimcha ravishda jahon amaliyotida qo‘llanilayotgan xalqaro “Standard & Poor’s” tashkilotining “S&P” modeli mamlakatlarning kredit (to‘lov) layoqatini, “Economic Intelligence Unit (EIU)” tashkilotining xavf-xatarlarni baholash modeli yuqoridagi modellar kabi dunyo mamlakatlarining siyosiy, iqtisodiy va moliyaviy xavflarini baholaydigan modellarni keltirish mumkin (2-jadval).

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, mamlakat xavf-xatari ko‘p jihatdan mamlakatdagi biznes muhiti va investitsiya sharoitlariga ta‘sir ko‘rsatadi. Olib borilgan empirik izlanishlar mamlakatdagi xavf-xatar darajasi mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatadi.

Siyosiy, iqtisodiy va moliyaviy xavf-xatarlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning jozibadorligi va xorijiy investorlar uchun umumiy mamlakat xavf-xatariga katta ta‘sir ko‘rsatadi. Shu sababli, mamlakatda har tomonlama o‘shish uchun sharoit va muhitni tavsiflash uchun xavf-xatarlarni baholash muhim bo‘lib qoldi. Bu muhim investitsiya qarorlarini qabul qilish uchun juda dolzarb hisoblanadi.

Shuningdek, mamlakat iqtisodiy rivojlanishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatuvchi xavf-xatarlarni tahlil qilishda qo‘llaniladigan Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (keyingi o‘rinlarda – IHTT) tomonidan ishlab chiqilgan va foydalaniladigan “CRAM (Country risk assessment model)” modeli juda muhim ahamiyatga ega model hisoblanadi. Ushbu model metodologiyasi mamlakatlarning moliyaviy barqarorligini va eksport kreditlari bo‘yicha xavf-xatarlarni aniqlashda muhim vosita sifatida tan olingan va u mamlakatlarning kredit xavf-xatarini baholash va ularni sakkiz darajali xavf-xatar tasnifiga joylashtirish uchun mo‘ljallangan bo‘lib, unda asosan uch guruh ko‘rsatkichlar – to‘lov tajribasi, moliyaviy holat va iqtisodiy vaziyat – hisobga olinadi. O‘zbekiston kabi rivojlanayotgan iqtisodiyotlar uchun bu modelning qo‘llanilishi nafaqat mamlakatning moliyaviy barqarorligini baholashda, balki xalqaro investorlar va kreditorlar oldidagi ishonchlilik darajasini aniqlashda ham muhim ahamiyatga ega.

Dissertatsiyaning **“O‘zbekiston iqtisodiyotidagi xavf-xatarlar darajasi tahlili”** deb nomlangan ikkinchi bobida O‘zbekiston iqtisodiyotida mavjud asosiy xavf-xatarlar tahlili, hududlar kesimida asosiy xavf-xatarlar tahlil etilgan, iqtisodiy va moliyaviy xavf-xatarlar “determinantlarni baholash” usuli vositasida tahlil qilingan bo‘lib, unga ko‘ra, CRAM metodologiyasi asosida mamlakatning iqtisodiy va moliyaviy ko‘rsatkichlari, ta‘sir etuvchi xavf-xatarlar ko‘rib chiqilgan, natijalar bo‘yicha muallifning tahliliy yondashuvi mujassamlashgan.

O‘zbekiston mintaqalari bo‘yicha asosiy xavf-xatarlarni tahlil qilish va tasniflash bo‘yicha olingan ma‘lumotlar mamlakat bo‘yicha xavf-xatarlarni tahlil qilish va xulosa qilishga yordam beradi. Buning sababi, tanlangan ma‘lumotlarning aksariyati, jumladan inflyatsiya va ziddiyatlar kabi tushunchalar makroiqtisodiy asosga ega bo‘lib, mintaqaviy asosda qo‘llanilmaydi. Bundan tashqari, mintaqaviy miqyosda korrupsiyaga oid ma‘lumotlar kamligi sababli O‘zbekiston iqtisodiyotida hududlar kesimida asosiy xavf-xatarlar tahlili va tasnifi amalga oshirishda mintaqaviy darajada YaHM, asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmi hamda aholi jon boshiga yalpi milliy daromad (YaMD) hajmi bo‘yicha ma‘lumotlaridan foydalanilgan.

Ma'lumki, YaHM atamasi iqtisodiy kategoriya sifatida muayyan davrda odatda bir yilda mintaqada joylashgan rezidentlar ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy natijasini ifodalaydigan makroiqtisodiy ko'rsatkich hisoblanadi. Hududlardagi iqtisodiy o'sish holatlari avvalo davlat tomonidan olib borilayotgan samarali iqtisodiy siyosat, shuningdek, hududlarda mavjud muammolarni o'z vaqtida aniqlanishi, xavf-xatarlar tahlil qilinishi, baholanishi kabi sa'y-harakatlar natijasida hududlarda yaratilayotgan YaHM hajmi, jumladan, mutlaq va aholi jon boshiga YaHM hajmi yildan-yilga o'sib bormoqda, shuningdek, hududlarda iqtisodiy faollik, natijalar yaxshilanib bormoqda.

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning hududlar kesimida jihatlarini ko'rib chiqish maqsadga muvofiq (3-jadval).

**3-jadval**

**Hududlar kesimida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar dinamikasi  
(foizda)<sup>11</sup>**

Hudud nomi	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023
Respublika bo'yicha	100	100	100	100	100	100	100
Qoraqalpog'iston Respublikasi	3.7	5.6	4.4	4	3.2	3.8	3.4
Andijon	3.7	3.8	4.3	4.3	5	5.5	5.2
Buxoro	18.1	7.3	5.2	5.6	7.8	7.9	8.9
Jizzax	2.4	3	4.2	2.6	5.4	4.0	4.7
Qashqadaryo	16.8	14.3	12.4	9.9	6.6	6.0	6.2
Navoiy	4.6	9.4	9.4	7.9	6.7	7.2	7.4
Namangan	5	6.6	6.4	5.9	5.4	5.3	5.9
Samarqand	5.4	5.4	5.2	6.6	7.2	8.2	7.6
Surxondaryo	4.9	5.7	6.4	4.9	4.6	4.3	5.1
Sirdaryo	2.2	2	3.2	3.6	3.6	4.7	4.4
Toshkent viloyati	7.1	8.7	8.9	9.4	11.4	13.0	12.7
Farg'ona	3.9	4.6	4.8	5.6	5.3	5.7	5.8
Xorazm	2.8	2.8	2.9	3.3	3.5	3.3	3.4
Toshkent shahri	19	20.4	21.8	22.2	23.5	21.1	19.4

3-jadval ma'lumotlari 14 ta hudud bo'yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar ulushi dinamikasini aks ettiradi, unga ko'ra, bu ko'rsatkichlar hududning iqtisodiy faolligi, xavf-xatarlar darajasi, yirik investitsiya loyihalarini qabul qilish darajasi, mavjud infratuzilma holati va davlat tomonidan olib borilayotgan siyosatining mintaqaviy ta'sirini baholash, tahlil qilish imkonini beradi.

Asosiy kapitalga kiritilayotgan investitsiyalarning moliyalashtirish manbalari umumiy ulush yuqori bo'lgan hududlarda davlat kafolati ostida mablag'lar hisobidan emas, balki korxonalarining, aholining ixtiyoridagi manbalari hisobidan moliyalashtirish darajasi oshmoqda. Jumladan, 2024-yil natijalari bo'yicha, Toshkent shahrida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 40.2%i korxonalarining o'z mablag'lari hisobidan kiritilganligi iqtisodiy infratuzilma

<sup>11</sup> O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

hududlarda yaxshilangan sari, davlat kafolati ostida investitsiyalar kiritish ko‘lami o‘z-o‘zidan qisqarib borganligi kuzatilgan. Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan YaMD past bo‘lgan hududlarda iqtisodiy faoliyat, ishlab chiqarish va daromad keltiradigan boshqa faoliyat turlarida qiyinchiliklar mavjud. Shu sababli, infratuzilma va kommunal xizmatlarni rivojlantirish iqtisodiy o‘shishning mintaqaviy nomutanosibligini kamaytirish va ushbu hududlarda tarkibiy iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish bo‘yicha tegishli siyosatni amalga oshirish uchun hukumatning alohida e‘tiborini talab qiladi<sup>12</sup>.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, tadqiqotda hududlar bo‘yicha mintaqaviy nomutanosibliklarni aniqlash asosida hududlar kesimida hisoblanadigan asosiy xavf-xatarlar tasnifi va milliy iqtisodiyotga xos xavf-xatarlarni baholashda qo‘llaniladigan indikatorlarni bog‘liqlik darajasini korrelyatsiya koeffitsiyenti (RLI) yordamida aniqlangan.

$$RLI = Cov(F_i, E_i) / (\sigma F_i * \sigma E_i) \quad (1)$$

Bu yerda,  $F_i$  – xavf darajasiga ta’sir etuvchi moliyaviy ko‘rsatkichlar;  $E_i$  – xavf darajasiga ta’sir qiluvchi iqtisodiy ko‘rsatkichlar;

$\sigma F_i * \sigma E_i$  – Standart og‘ishlar; RLI (xavf darajasi) – Korrelyatsiya

koeffitsiyenti;

Unga ko‘ra, milliy iqtisodiyotga xos xavf-xatarlarni baholashda qo‘llaniladigan indikatorlarni xavf darajasiga ko‘ra “past xavf” (0 – 0,33 orasida), “o‘rtacha xavf” (0,34 – 0,66), “yuqori xavf” (0,67 – 1,0) oralig‘ida baholash taklifini ilgari surilgan va quyida uch guruh bo‘yicha mamlakatning (hududlarning) rivojlanish holatini tasniflangan.

#### 4-jadval

##### Milliy iqtisodiyotga xos xavf-xatarlarni baholashda qo‘llaniladigan indikatorlarni xavf darajasiga ko‘ra tasnifi<sup>13</sup>

Guruh nomi	Indeks qiymati	Mazmuni	Xavf darajasiga mansub hududlar
Past xavf	$0 < RLI \leq 0,33$	Investitsiya kiritish uchun qulay sharoit, rivojlangan infratuzilma, biznes uchun keng imkoniyatlar, barqaror iqtisodiy o‘shish imkoniyati	Toshkent shahri, Toshkent viloyati
O‘rtacha xavf	$0,34 < RLI \leq 0,66$	Investitsiya kiritishga sharoitlar yaratilayotganligi, iqtisodiy o‘shishning jonlashi fazasi, inflyatsiya, ishsizlikning o‘rtacha darajasi, qisman rivojlangan infratuzilma, biznes yuritishda yaratilayotgan imkoniyatlar	Samarqand, Andijon, Farg‘ona, Namangan, Jizzax, Buxoro, Navoiy
Yuqori xavf	$0,67 < RLI \leq 1,0$	Investitsiya oqimining pastligi, Haqiqiy va potensial YaIM o‘rtasidagi uzilishlar, yuqori inflyatsiya va ishsizlik darajalarining yuqori darajasi, infratuzilma, mintaqaning cheklangan rivojlanish sharoitlari.	Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Surxondaryo, Qashqadaryo, Xorazm, Sirdaryo

Ushbu taklifga ko‘ra, xavf darajasiga qarab mamlakatning rivojlanish holatidagi tasnifi izohlandi. Yuqori xavf darajasi davlatning iqtisodiy va ijtimoiy

<sup>12</sup> O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

<sup>13</sup> Tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan tuzildi.

rivojlanishidagi jiddiy muammolarni aks ettiradi. Ushbu salbiy holatni bartaraf etish uchun kompleks yondashuv talab etiladi, jumladan, mamlakatda investitsiya muhitini yaxshilash, xorijiy investitsiyalarni hajmini oshirish, infratuzilmani rivojlantirish, ishsizlikni kamaytirishga qaratilgan faol ishchi kuchi bozori siyosati va inflyatsiyani targetlash bo'yicha samarali monetar choralar ko'rish talab qilinadi.

Shuningdek, tadqiqotda IHTTning CRAM metodologiyasi asosida O'zbekistonda mamlakat xavf-xatarini tahlil qilish jarayoni ko'rib chiqilgan bo'lib, bunda CRAM metodi mamlakat xavf-xatarini tahlil qilishda samarali vosita bo'lib xizmat qilgan. Tahlil natijalari 2019-2024-yillar oralig'idagi ma'lumotlarni qamrab olgan, O'zbekistonning asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari (miqdoriy ma'lumotlar) CRAM modelining mezonlari bilan solishtirilgan. O'zbekistonning tashqi qarzlarni qaytarish bo'yicha to'lov tajribasi IHTT eksport kredit agentliklari ma'lumotlari va xalqaro moliyaviy institutlar hisobotlari asosida baholangan. Mamlakat tashqi qarzlarni bo'yicha to'lovlarni o'z vaqtida amalga oshirgan, qarzlarni qayta tuzish (restructuring) yoki kechiktirish holatlari qayd etilmagan.

### 5-jadval

#### O'zbekistonning tashqi qarzlarni qaytarish tajribasi (2019-2023-yillar)<sup>14</sup>

Yil	Tashqi qarz xizmati (mlrd USD)	To'lov kechikishlari (kun)	Qarz qayta tuzish holatlari	To'lov barqarorligi (%)
2019	2.7	0	Yo'q	100
2020	3.4	15	Ha (qisman)	98
2021	6.3	0	Yo'q	100
2022	7.4	0	Yo'q	100
2023	8.3	0	Yo'q	100

Izoh: To'lov barqarorligi foizlarda kreditorlar oldidagi majburiyatlarning o'z vaqtida bajarilganligini aks ettiradi.

O'zbekistonning kreditorlar oldidagi majburiyatlarni bajarishdagi barqarorligini tasdiqlaydi. Pandemiya davrida (2020-yil) qarzlarni qaytarish jadvalida qisqa muddatli moslashuvlar bo'lgan, ammo bu holat kredit xavf-xatariga sezilarli ta'sir ko'rsatmagan. Bu CRAM modelida O'zbekistonning to'lov tajribasi uchun ijobiy baho olishiga asos bo'ladi (5-jadval).

### 6-jadval

#### O'zbekistonning moliyaviy holati (2019-2023-yillar)<sup>15</sup>

Yil	Tashqi qarz (mlrd USD)	Tashqi qarz/ YaIM (%)	Valyuta zaxiralari (mlrd USD)	Importni qoplash (oy)	Qarz xizmati nisbati (%)
2019	42,5	42,5	27,1	11,2	8,5
2020	42,5	58,0	34,9	14,5	9,2
2021	39,2	57,6	35,6	12,8	10,1
2022	44,7	54,6	35,9	10,5	11,3
2023	49,1	61,3	36,2	9,0	12,0

Izoh: Qarz xizmati nisbati eksport daromadlariga nisbatan qarz xizmatining foizdagi ulushini ko'rsatadi.

O'zbekistonning moliyaviy holati tashqi qarz nisbati, valyuta zaxiralari va likvidlik ko'rsatkichlari asosida tahlil qilindi. Tashqi qarz hajmi 2019-yildagi

<sup>14</sup> O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, Xalqaro valyuta fondi yillik statistik ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan

<sup>15</sup> O'sha manbalar

24.3 milliard AQSh dollaridan 2023-yilda 49.1 milliard AQSH dollarga oshgan. Tashqi qarzning YaIM ga nisbati 57.8% gacha yetgan (2020-yil), keyingi yillarda o'sish tendensiyalariga ega bo'lgan (61,3% ni tashkil etgan). Valyuta zaxiralari importni qoplash uchun yetarli darajada (9-14 oy) bo'lib, bu CRAM modelidagi likvidlik mezonlari uchun ijobiy ko'rsatkichdir. Biroq, qarz xizmati nisbati oshib borayotgani (8.5% dan 12.0% gacha) kelgusida moliyaviy yukning ortishi xavfini ko'rsatadi (6-jadval).

Qo'shimcha tahlil sifatida, O'zbekistonning moliyaviy holatini boshqa rivojlanayotgan mamlakatlar bilan solishtirilgan. O'zbekistonning moliyaviy holati Qozog'iston bilan o'xshashliklarni ko'rsatadi, ammo Tojikistonga qaraganda ancha barqaror (7-jadval).

#### 7-jadval

#### O'zbekiston va boshqa mamlakatlarning moliyaviy holati (2023-yillar)<sup>16</sup>

Mamlakat	Tashqi qarz/YaIM (%)	Valyuta zaxiralari (mlrd USD)	Importni qoplash (oy)
O'zbekiston	61.3	36.2	9.0
Qozog'iston	41.8	35.1	8.5
Tojikiston	62.3	3.2	4.1

O'zbekistonning iqtisodiy vaziyatini baholash uchun YaIM o'sishi, tashqi savdo va joriy hisob balansi ko'rsatkichlari tahlil qilindi 8-jadval:

#### 8-jadval

#### O'zbekistonning iqtisodiy vaziyati (2019-2023-yillar)<sup>17</sup>

Yil	YaIM o'sishi (%)	Eksport (mlrd USD)	Import (mlrd USD)	Joriy hisob balansi (mlrd USD)	Savdo balansi (mlrd USD)
2019	5.6	13.8	21.1	-3.3	-7.2
2020	1.9	12.8	19.0	-3.3	-6.2
2021	8.0	14.1	22.9	-4.9	-8.8
2022	5.7	16.7	28.3	-2.9	-11.6
2023	5.5	21.5	31.4	-7.7	-9.9

O'zbekiston iqtisodiyoti pandemiya davrida (2020) sekinlashgan bo'lsa-da, 2021-yilda 8% lik yuqori o'sish sur'atini qayd etgan. Eksport hajmi 2019-yildagi 13.8 milliard AQSH dollardan 2023-yilda 21.5 milliard AQSH dollarga oshgan, ammo importning yanada yuqori sur'atlarda o'sishi (31.4 milliard dollargacha) savdo balansida taqchilikni kengaytirgan (-9.9 milliard dollar). Joriy hisob balansidagi salbiy ko'rsatkich (-6.0 milliard dollar) tashqi moliyaviy resurslarga bog'liqlikning davom etayotganligini ko'rsatadi (8-jadval).


Yuqoridagi natijalarni CRAM modeliga integratsiya qilgan holda, O'zbekiston 2023-yilda IHTT xavf-xatar tasnifida 5-darajada (0-7 oralig'ida) joylashgan. Bu daraja o'rtacha xavf-xatarni anglatadi va quyidagi omillarga asoslanadi: ijobiy omillar: barqaror to'lov tajribasi, yetarli valyuta zaxiralari,

<sup>16</sup> O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, Xalqaro valyuta fondi yillik statistik ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan

<sup>17</sup> O'sha manbalar

iqtisodiy o‘shish. salbiy omillar: tashqi qarzning o‘shishi, joriy hisob balansidagi taqchillik, eksportning xom ashyoga bog‘liqligi.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonning moliyaviy va iqtisodiy barqarorligi qisqa muddatda xavf ostida emas, ammo o‘rta va uzoq muddatli xavf-xatarlarni boshqarish uchun qo‘shimcha chora-tadbirlar talab etiladi. Shuningdek, bank tizimining moliyaviy barqarorligi iqtisodiyotning umumiy rivojlanishi uchun muhim omil hisoblanadi. Kapital yetarliligi ko‘rsatkichi banklarning moliyaviy xavf-xatarlarga bardosh berish qobiliyatini aks ettirsa, muammoli kreditlar (NPL) darajasi kredit portfelining sifati va tavakkalchiliklarni boshqarish samaradorligini ko‘rsatadi.



2018–2024-yillar davomida mamlakat bank tizimining asosiy ko‘rsatkichlari jumladan, kapital yetarliligi va muammoli kreditlar (NPL) darajasi – nisbatan barqaror bo‘lib, muhim moliyaviy axborot sifatida o‘zgarishlar kuzatilgan. Bank tizimi kapital yetarliligi ko‘rsatkichi xalqaro me‘yorlardan ancha yuqori darajada bo‘lgan. O‘zbekiston bank tizimi 2018-2024-yillarda nisbatan barqaror rivojlanishda davom etgan. (2-rasm).

Shuningdek, geosiyosiy ziddiyatlar va tashqi iqtisodiy konyunkturadagi o‘zgarishlar ekzogen xususiyatga ega bo‘lib, ular nazariy jihatdan mamlakat iqtisodiyotiga investitsiyalar oqimi va milliy ishlab chiqarishning kamayishi, ishsizlikning ortishi va uy xo‘jaliklari daromadlari darajasining pasayishi, hamkor mamlakatlar iqtisodiyotidagi o‘zgarishlarning tashqi savdo hajmiga ta‘siri, rasmiy zaxiralar va milliy valyuta kursidagi tebranishlar, tashqi qarz va unga xizmat ko‘rsatish hajmining oshishi, narxlar darajasi va foiz stavkalarining oshishi orqali yalpi talab va yalpi taklifning strukturaviy o‘zgarishlariga olib kelishi mumkin. Ushbu jarayonlarni shartli ravishda milliy ishlab chiqarish hajmi o‘shishining potensial hajmidan ortda qolishi bilan tushuntirish mumkin.

<sup>18</sup> O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Modelning bog‘liq o‘zgaruvchisi sifatida haqiqiy va potensial YaIM orasidagi uzilish shartli ravishda makroiqtisodiy xavf-xatar deb olingan. Real ishlab chiqarish hajmining o‘zgarishi, inflyatsiya, ayirboshlash kursi, ish haqi, davlat budjeti defitsiti hamda tashqi savdo balansi defitsiti kabi o‘zgaruvchilar mustaqil o‘zgaruvchi sifatida tanlab olingan. Tashqi savdo va budjet defitsiti ko‘rsatkichlari soxta o‘zgaruvchilar sifatida kiritilgan bo‘lib, vaqt qatorlarida defitsit kuzatilgan davr uchun 1, profitsit kuzatilgan davr esa 0 deb olingan. Tadqiqotda o‘zgaruvchilarning umumiy tavsifini ko‘rish mumkin. Modelni shakllantirishda ushbu omillarni tanlab olinishiga sabab, ular makroiqtisodiy model va muallif gipotezasiga ko‘ra makroiqtisodiy beqarorlikni yoki noaniqlikni keltirib chiqaruvchi omillar sifatida ko‘riladi.

Ushbu tadqiqotda makroiqtisodiy xavf-xatar ko‘rsatkichi sifatida HP filter orqali olingan YaIM bo‘shlig‘idan foydalaniladi. Aslida ushbu uslubiyat kamchiliklardan holi bo‘lmasa-da, makroiqtisodiy noaniqliklarni ifodalashda shartli ravishda foydalanish mumkin. Tadqiqotda, modelga kiritilgan o‘zgaruvchilarning normal taqsimoti Skewness-Kurtosis testi yordamida, o‘zgaruvchilarning ko‘p tarmoqli kollinearligi uchun VIF testidan hamda, modelning yakuniy natijalari ishonchliligini baholashga, Breusch-Pagan testlari yordamida gipoteza tekshiruvlaridan o‘tkazilgan. 9-jadvalda regression tahlil natijalariga e‘tibor qaratamiz.

**9-jadval**

<b>Regression tahlil natijalari<sup>19</sup></b>			
	(model 1)	(model 2)	(model 3)
	gap_gdp	gap_gdp	gap_gdp
realgdp	-0.926*** (0.000)	-0.876*** (0.000)	-0.886*** (0.001)
cpi	0.174*** (0.000)	0.164*** (0.000)	0.169*** (0.000)
exch_end	0.0153* (0.049)	0.0131* (0.057)	0.0149* (0.041)
govdebt	0.0857* (0.032)	0.0796* (0.039)	0.0797* (0.034)
cab_defit	0.476 (0.086)	0.4466 (0.089)	0.4258 (0.090)
fis_defit	0.572 (0.096)	0.491 (0.098)	0.499 (0.098)
Constant	83.94*** (0.000)	82.83*** (0.000)	82.89*** (0.000)
Observations	47	47	47
R2	0.864	0.852	0.846
Adjusted R2	0.844	0.831	0.830

*p*-values in parentheses \*  $p < 0.05$ , \*\*  $p < 0.01$ , \*\*\*  $p < 0.001$

Natijalar, modelning determinatsiya ko‘rsatkichi 0.86 ni ko‘rsatmoqda. Mustaqil o‘zgaruvchilar bog‘liq o‘zgaruvchini 86 foizini tushuntirishini anglatadi. Bu yerda endogenlik muammosi mavjud emasligini ko‘rish mumkin. O‘zgaruvchilar orasidagi eng kuchli bog‘liqlik, real ishlab chiqarish hajmining oshishi bo‘lib, uning bir foizga o‘zgarishi makroiqtisodiy xavf-xatar darajasini

<sup>19</sup> Muallif ishlanmasi.

0.92 foizga kamaytiradi. Fiskal defitsit ham xavf-xatarining o‘chog‘i hisoblanadi. Uning bir foizga oshishi, xavf-xatar darajasini 0.57 foizga oshiradi. Keyingi darajadagi xavf-xatar tashqi savdo balansi defitsitiga to‘g‘ri keladi. Uning oshishi esa makroiqtisodiy xavf-xatarni 0.47 foizga oshiradi. Ayirboshlash kursi, inflyatsiya va davlat qarzining YaIMga nisbati ko‘rsatkichlari ham ahamiyatli bo‘lib, ularning oshishi xavf-xatar darajasini mos ravishda 0.17, 0.01 va 0.08 foizga o‘zgartiradi. Bundan tashqari, uchala model natijalarining o‘zaro o‘xshashligi, uning xatoliklardan xoli ekanligi isbotlaydi (9-jadval). Tahlilda mamlakatdagi xavf-xatarni ifodalovchi omil sifatida shartli ravishda YaIMning uzilishi tanlangan. Tahlil natijalari makroiqtisodiy xavf-xatarga nisbatan eng kuchli ta‘sirchanlikka ega o‘zgaruvchilar sifatida real YaIMning o‘sishi, tashqi savdo balansi defitsiti va budjet defitsiti kabilar ekanligi ma‘lum bo‘ldi.

Dissertatsiyaning **“O‘zbekiston iqtisodiyoti uchun xavf-xatarlarni kamaytirish istiqbollari”** nomli uchinchi bobida mamlakatga xos xavf-xatarlarni tahlil qilish bo‘yicha ilg‘or xorijiy metodologiyalarni O‘zbekiston iqtisodiyotida joriy etish imkoniyatlari aniqlangan, xavf-xatarlarni tahlil qilishga doir zamonaviy modellarning qiyosiy tahlili amalga oshirilgan, O‘zbekistonda mamlakatlarga xos xatarlar IHTTning CRAM metodologiyasi asosida baholangan hamda prognoz natijalar keltirilgan va istiqbolli natijalar berilgan.

**10-jadval**

**O‘zbekiston uchun CRAM modeli hisob-kitoblari<sup>20</sup>**

Baholash sektorlari	Sub-indekslar	Natija	Yig‘ma natija	CRAM
<b>Moliyaviy vaziyat</b>	Tashqi qarz/zaxiralar	0.28	1.21	<b>3.85</b>
	Tashqi qarz/YaIM	0.03		
	Tashqi qarzga xizmat/Zaxiralar	0.14		
	Xorijiy zaxiralar (oylik import)	0.75		
<b>Iqtisodiy vaziyat</b>	<b>O‘shish potentsiali</b>		2.81	
	Investitsiya/jamg‘arma	0.03		
	Jon boshiga YaIM	0.17		
	Uzoq muddatli o‘shish	0.00		
	Umr ko‘rish davomiyligi	0.01		
	<b>Siyosat samaradorligi</b>			
	Inflyatsiya	0.29		
	Budjet defitsiti	0.70		
	Tashqi savdo balansi	1.61		
	<b>Tashqi shoklarga chidamlilik</b>			
	Yoqilg‘i importi	0.17		
Rasmiy transfertlar	0.10			
<b>To‘lov tajribasi</b>	Tashqi qarz	0.03	0.44	
	Savdo erkinligi	0.38		
	Globalizatsiya indeksi	0.02		
<b>Siyosiy vaziyat</b>	Siyosiy barqarorlik	0.05	-0.60	
	Ijtimoiy taranglik	-0.04		
	Majburiy mehnat	-0.20		
	Siyosiy zo‘ravonlik	-0.33		
	Tashqi ta‘sir	-0.08		

<sup>20</sup> Muallif ishlanmasi.

Iqtisodiy model ko'rsatkichlari juda murakkab o'zaro bog'liqliklardan tashkil topgan. Modeldan olingan natijalarning to'g'riligi va ishonchliligi bevosita uning asosiy ko'rsatkichlarining mavjudligi va sifati bilan belgilanadi. Boshqa so'z bilan aytganda, modelda qo'llaniladigan rasmiy ko'rsatkichlar qanchalik to'liq va aniq bo'lsa, natijalar shunchalik asosli bo'ladi. Biroq, amaliyotda milliy statistika tizimida ayrim muhim ko'rsatkichlar mavjud emasligi kuzatiladi.

Bunday vaziyatda, biz mavjud bo'lmagan ko'rsatkichlarni to'liq almashtirish uchun ularning mazmuniga mos keluvchi va o'rnini bosuvchi muqobil ko'rsatkichlardan foydalanishga majbur bo'ldik. 10-jadvalda O'zbekistonda IHTTning CRAM modeli uchun zarur bo'lgan ko'rsatkichlar tasniflangan.

Bu usul, asl ko'rsatkichlar yetishmagan taqdirda ham, modelning ishlashini davom ettirish va ma'lumotlarni tahlil qilish imkonini beradi. Biroq, muqobil ko'rsatkichlardan foydalanish model natijalarining aniqligiga ta'sir qilishi mumkinligini ham unutmash kerak. Shuning uchun, bunday muqobil variantlar ehtiyotkorlik bilan tanlanishi va ularning cheklovlari hisobga olinishi lozim. Endilikda CRAM modelidan olingan natijalar bilan tanishamiz.

Milliy model ko'rsatkichi natijalariga ko'ra, moliyaviy vaziyat bo'yicha natijalar 1.21 ball ko'rsatsa, iqtisodiy vaziyat bo'yicha natija 2.81 ballni ko'rsatmoqda. Shuningdek, to'lov tajribasi bo'yicha esa 0.44 ballni va nihoyat siyosiy vaziyat bo'yicha natija -0.60 ni ko'rsatmoqda. Yig'ma ko'rinishda ushbu jamlanma natija 3.85 ballni ko'rsatmoqda.

CRAM modeli bo'yicha olingan natijalarga ko'ra O'zbekiston uchun xavf-xatar darajasi o'rta darajani ko'rsatmoqda. Mezonlar bo'yicha bu natija "Ko'pincha iqtisodiy zaifliklar yoki siyosiy tartibsizliklar ehtimoli kattaroq bo'lganligi sababli o'rtacha va yuqori xavfga ega bo'lgan mamlakatlar" guruhiga to'g'ri kelmoqda. O'zbekiston Respublikasining ushbu boradagi o'rnini yaxshilash uchun quyidagi chora tadbirlarni amalga oshirish zarur deb o'ylaymiz:

Birinchidan. Davlat qarzini boshqarish va optimallashtirish zarur. O'zbekistonning davlat qarzi 2024-yilda YaIMga nisbatan 40% ni tashkil etdi. XVF ushbu ko'rsatkichni rivojlanayotgan mamlakatlar uchun 60 foizgacha normal deb tavsiya etgan bo'lsa-da, CRAM modeli natijalari ushbu natijani moliyaviy vaziyatni salbiylashtiruvchi sifatida ko'rsatgan. Buni 30% atrofida ushlab turish tavsiya etiladi, chunki yuqori qarzlar uzoq muddatda iqtisodiy barqarorlikka salbiy ta'sir etish xavfi yuqori bo'lib qolmoqda.

Ikkinchidan. Qarzni qaytarishning samarali boshqarilishini ta'minlash zarur. Masalan, 2023-yilda jalb etilgan davlat qarzining 15 foizi uning o'ziga xizmat ko'rsatish uchun ishlatilgan. Bu ko'rsatkich esa yil sayin o'sish tendensiyasiga ega bo'lmoqda. Bu esa qarzlarning o'sishi davlat budjeti daromadlarining o'sishiga xizmat qilmayotganligini anglatadi. Shuning uchun ham CRAM modeli natijalariga ko'ra davlat qarziga xizmat ko'rsatish indeksi moliyaviy vaziyatni yomonlashtiruvchi eng asosiy omil sifatida rol o'ynagan (1.21 ball). Qarzlarning samaradorligini oshirish uchun eng optimal yechim uni bozor mexanizmlari orqali taqsimlash, ya'ni, real sektor loyihalariga yo'naltirish maqsadga muvofiq.

Uchinchidan. Inflyatsiyani pasaytirish va umumiy narxlar darajasining barqarorligini ta'minlash zarur. Kuzatuv 2022-yilda iste'mol narxlari indeksida

ifodalangan inflyatsiya ko'rsatkichi 12.3 foizdan 2023-yilda 8.8 foiz kamaygan. Umumiy vaziyat pasayish tendensiyasiga ega bo'lishiga qaramasdan, inflyatsiya, CRAM modelida iqtisodiy vaziyatni yomonlashtiruvchi omil bo'lib qolmoqda. Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, inflyatsiya bo'yicha belgilangan maqsadli ko'rsatkichga erishish (inflatsion target 5%) CRAM modelidagi iqtisodiy vaziyatni 2.81 balldan 2.01 ballgacha pasayishiga olib kelishi mumkin. Bu esa umumiy O'zbekistonning CRAMdagi xavf-xatar pozitsiyasini 3.85 balldan 3.45 ballgacha pasaytirishi mumkin.

To'rtinchidan. Budget kamomadini kamaytirish va samarali soliq siyosatini qo'llash. CRAM modelidagi iqtisodiy vaziyatni ifodalovchi ko'rsatkich budget defitsiti bo'lib, ushbu ko'rsatkich xatarlar natijasiga 0.70 ball hissa qo'shmoqda. Tahlillar shuni ko'rsatmoqdagi 2023-yil ma'lumotlariga ko'ra budget kamomadi YaIMga nisbatan 4.1 foizdan oshgan. Bu esa makroiqtisodiy sektor uchun potensial xavf-xatarlarni shakllantirmoqda. Bunday vaziyatda O'zbekiston uchun eng optimal chora mavjud davlat xarajatlarini cheklash emas balki, soliq bazasini kengaytirish va korporativ soliq stavkalarini optimallashtirish bo'lib qolmoqda.

Beshinchidan. Tashqi savdo balansida ijobiy saldogga erishishning masalalari mexanizmni ishlab chiqish. Tashqi savdo defitsiti O'zbekiston uchun xatarning eng asosiy o'chog'i bo'lib, birgina shu kanal xatar darajasiga 1.61 ball hissa qo'shadi. Ushbu omilning kattalashuvi makroiqtisodiy sektorda uch tomonlama, xususan, rasmiy zaxiralarning qisqarishi, valyuta kursining devalvatsiyasi va tashqi bozorga qaramlik nuqtayi nazarida xatarli vaziyatlarni shakllantiradi. O'zbekiston uchun bu boradagi samarali chora ishbilarmonlik muhitini yaxshilash orqali milliy ishlab chiqarishni rag'batlantirish bo'lib hisoblanadi.

Oltinchidan. Iqtisodiy o'sish rag'batlashtirish va energetika islohotlari samarali amalga oshirish zarur. O'zbekistonda iqtisodiy o'sishning barqaror tendensiyasi mavjud bo'lishiga qaramasdan YaIM tarkibida sanoatning ulushi juda kichikligicha qolmoqda (25-27 foiz). Uzoq muddatli iqtisodiy o'sishni ta'minlashga real sektorni rivojlantirish hamda mustaqil energetika infratuzilmasi va imkoniyatlari shakllantirish orqali erishish ham iqtisodiy ham siyosiy xatarlarni oldini olish va yumshatishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birgalikda, erishilgan natijalar, tahliliy ma'lumotlar, izlanishlar asosida milliy iqtisodiyotga xos xavf-xatarlarni tahlil qilish bo'yicha tanlangan ta'sir etuvchi omil ko'rsatkichlar asosida prognoz qiymatlari ishlab chiqishga harakat qilindi. Bugungi murakkab global sharoit, xususan geosiyosiy keskinliklar, pandemiyadan so'nggi tiklanish bosqichi va moliyaviy beqarorlik fonida, davlatlar uchun milliy xatarlarni aniqlashda puxta statistik prognoz vositalaridan foydalanish muhim strategik vazifa sifatida qaralmoqda. Shu bois, endilikda makroiqtisodiy barqarorlikning asosiy natijaviy ko'rsatkichlari hisoblanuvchi iqtisodiy o'sish va inflyatsiya darajasining prognozlari ishlab chiqilgan.

Prognozlari VAR modeli orqali amalga oshirilgan va uning standart ko'rinishi quyidagicha<sup>21</sup>:

---

<sup>21</sup> Dinh, D. (2020). Impulse response of inflation to economic growth dynamics: VAR model analysis. *The Journal of Asian Finance, Economics and Business*, 7(9), 10-13106.

$$y_t = u + \sum_{i=1}^p b_1 y_{t-1} + \sum_{i=1}^p b_2 x_t + v_t \quad (2)$$

Bu yerda:

$y_t$  – bog‘liq o‘zgaruvchi vektori;  $u$  – ozod had vektori;  $x_t$  – mustaqil o‘zgaruvchilar vektori;  $v_t$  – standart xatoliklar vektori.


11-jadvalda prognoz ko‘rsatkichlari uning omillarining umumiy tasnifi keltirilgan.

## 11-jadval

### Prognoz ko‘rsatkichlari va uning omillari tasnifi<sup>22</sup>

Prognoz ko‘rsatkich	Ta‘sir etuvchi omillar	Ta‘sir etuvchi omillar tavsifi
Iqtisodiy o‘sh (Real YaIM trln.so‘m)	Inflyatsiya	Iste‘mol narxlari indeksida aks ettirilgan inflyatsiya (%)
	Ayirboshlash kursi	Milliy valyutaning AQSH dollariga nisbati, bir yillik o‘rtacha tendensiya ming so‘mda (UZS/USA)
	Davlar qarzi	Nominal davlat qarzining o‘sh sur‘ati (YaIMga nisbatan %da)
	Tashqi savdo balansi defitsiti	Eksport-import orasidagi farq (YaIMga nisbatan foizda)
Inflyatsiya (foiz)	Ayirboshlash kursi	Milliy valyutaning AQSH dollariga nisbati, bir yillik o‘rtacha tendensiya ming so‘mda (UZS/USA)
	Pul massasi	Kengaytirilgan pul taklifi (M2 agregati), bir yillik o‘rtacha tendensiya trln.so‘m
	Ish haqi	Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha o‘rtacha ish haqi, yillik (mln.so‘m)

Ma‘lumki, tadqiqotlarni amalga oshirishdagi eng asosiy muammo ishonchli statistik ma‘lumotlarning yetishmasligi hisoblanadi. Buni oldini olish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasining rasmiy sayti ma‘lumotlaridan foydalanilgan. Tahlilda kuzatuvlar choraklik bo‘lib, 2010-2024-yillarni qamrab olgan.



**3-rasm. O‘zbekistonni 2025-2030-yillar uchun iqtisodiy o‘sh (real YaIM hajmi) va inflyatsiya darajasining VAR (1) modeli asosida ishlab chiqilgan prognozi<sup>23</sup>.**

<sup>22</sup> Muallif ishlanmasi

<sup>23</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Ta'kidlash joizki, prognoz ko'rsatkichlariga ta'siri inobatga olinayotgan omillarni tanlashga asosiy sabab, tadqiqot ishining oldingi qismlarida ushbu ko'rsatkichlar O'zbekiston uchun salbiy tendensiyaga ega ekanligi bilan tavsiflanadi. Quyidagi rasmda prognoz natijalari keltirilgan (3-rasm).

Shuni alohida ta'kidlash joizki, prognozlarning ishonchlilik darajasini aniqlash ilmiy tadqiqotning yakuniy va muhim bosqichlaridan biri hisoblanadi. Mazkur bosqichda prognoz natijalarining aniqligini baholash o'rtacha mutlaq foiz xatolik ko'rsatkichi (MAPE – Mean Absolute Percentage Error) asosida baholandi.

$$MAPE = \frac{1}{n} \sum_{i=1}^n \frac{|A_i - F_i|}{A_i} \quad (3)$$

Bu yerda:  $A_i$  – haqiqiy kuzatilgan qiymatlar;  $F_i$  – prognoz qilingan qiymatlar;  $n$  – kuzatuvlar soni. Mazkur usulning mohiyati shundaki, u bashorat qilingan ko'rsatkichlar bilan ularning amaliy (real) qiymatlari o'rtasidagi o'rtacha mutlaq foiz og'ishini hisoblash orqali prognozning aniqlik darajasini baholash imkonini beradi.

Lewis (1982) yondashuviga ko'ra, agar bu ko'rsatkich 10 foiz va undan past bo'lsa, prognoz yuqori aniqlikka ega deb qaraladi; 10-20 foiz oralig'ida – ishonchli, 20–50 foizgacha bo'lsa – qoniqarli, 50 foizdan ortiq bo'lsa – prognoz sifatsiz va ishonchsiz deb baholanadi<sup>24</sup>. Quyidagi jadvalda baholash natijalari keltirilgan.

## 12-jadval

### Prognozlarning adekvatligini baholash<sup>25</sup>

Ssenariy	MAPE (YaIM)	MAPE (Inflyatsiya)	MAPE (YaIM) Aniqlik = 100 – MAPE	MAPE (Inflyatsiya) Aniqlik = 100 – MAPE
Pessimistik	3.18	8.07	96.8 %	91.3 %
O'rtacha	1.30	2.32	98.7 %	97.7 %
Optimistik	2.30	4.05	97.7 %	95.9 %

Natijalardan ko'rish mumkinki, Pessimistik ssenariy bo'yicha YaIM prognozi aniqligi 96.82% ni tashkil etdi, bu yuqori ko'rsatkichdir. Inflyatsiya prognozi aniqligi esa 91.93% ni tashkil etdi. Garchi bu ko'rsatkich ham yuqori bo'lsa-da, YaIMga nisbatan pastroq. O'rtacha ssenariy esa YaIM prognozi aniqligi eng yuqori ko'rsatkichni (98.70%) qayd etdi. Inflyatsiya prognozi aniqligi ham yuqori bo'lib, 97.68% ni tashkil etdi. Nihoyat, optimistik ssenariyda YaIM prognozi aniqligi 97.70% ni, inflyatsiya prognozi esa 95.95% ni tashkil etdi. Uchala ssenariyda ham prognoz natijalarining ishonchliligi 10 foizdan ham kichik. Bu natija prognozlarning aniqligi 90 foizdan yuqori ekanligini ifodalaydi.

<sup>24</sup> Lewis, C.D. (1982) Industrial and Business Forecasting Methods. Butterworths Publishing, London, p 143. ISBN 100408005599

<sup>25</sup> Muallif hisob-kitoblari.

## XULOSA

Tadqiqotda mamlakatlarga xos xavf-xatarlarni tahlil qilishning ilmiy-nazariy asoslari bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari quyidagi xulosalarni shakllantirish imkonini berdi:

1. Ilmiy-nazariy asoslardan kelib chiqib, mamlakatga xos xavf-xatarlar har bir xavf-xatar omili bo'yicha ko'rsatkichlar to'plamini tashkil etuvchi siyosiy, iqtisodiy va moliyaviy xavf-xatarlardan iborat. Xavf-xatar tahlili mamlakatdagi umumiy investitsiya muhitini tavsiflash uchun biznes muhitini tushunishga va mamlakatdagi investitsiyalarni oqimini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimi bo'yicha mamlakat xavf-xatarining ahamiyati to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning iqtisodiy o'sish bilan bog'liqligida aks etadi.

2. Davlat tomonidan tadbirkorlik subyektlari uchun qulay investitsion muhit yaratish va barqaror pul-kredit siyosatini ta'minlash bo'yicha belgilangan maqsadlarni amalga oshirish orqali siyosiy, iqtisodiy va moliyaviy xavf-xatarlar tahlil qilindi. Ushbu xavf-xatar toifalari mamlakatning moliyaviy qarz majburiyatlarini bajarish qobiliyati va tayyorligini ta'minlagan holda umumiy mamlakatning xavf-xatari va investitsiyalar uchun jozibadorligini ko'rsatadi.

3. Nazariy-uslubiy yondashuvdan kelib chiqib mamlakat xavf-xatari tushunchasi bo'yicha mualliflik ta'rifi ishlab chiqildi. Unga ko'ra, Mamlakat xavf-xatari – bu ma'lum bir mamlakatdagi investitsiya muhiti, biznes faoliyati va umumiy iqtisodiy barqarorligiga ta'sir ko'rsatuvchi iqtisodiy, siyosiy, moliyaviy, ijtimoiy va institutsional omillarning o'zaro ta'siri natijasida yuzaga keladigan noaniqliklar va potensial xavflar yig'indisi bo'lib, ular investitsiya muhiti, biznes faoliyati va umumiy iqtisodiy barqarorlikka ta'sir qiladi. Bu xavf-xatarlar mamlakatning ichki siyosati, iqtisodiy ko'rsatkichlari, moliyaviy tizimning barqarorligi, ijtimoiy tenglik darajasi, infratuzilma rivojlanishi va global iqtisodiy sharoitlar kabi ko'p qirrali omillarga bog'liq. Mamlakat xavf-xatari to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimining hajmi va sifatiga, mahalliy korxonalar faoliyatining samaradorligiga, shuningdek, iqtisodiy o'sish va aholining farovonligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

4. Iqtisodiy o'sish aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YaMDni oshirish orqali iqtisodiy xavf-xatarni kamaytirishning yana bir muhim omili hisoblanadi. Jahon banki O'zbekistonni aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YaMD bo'yicha o'rtachadan past daromadli mamlakatlar qatoriga kiritdi. Biroq, O'zbekiston iqtisodiyoti so'nggi o'n yilliklar davomida kuchli o'sishni ko'rsatdi va so'nggi yigirma yil ichida mamlakatda kambag'allik darajasi sezilarli darajada kamaydi. Mamlakat 2030-yil oxirigacha o'z sanoatini tarkibiy o'zgartirish va o'rtacha daromaddan yuqori bo'lgan mamlakatlar qatoriga qo'shiladigan strategiyasini ishlab chiqdi.

5. Iqtisodiyotning sezilarli ravishda o'sishiga qaramay, mintaqaviy nomutanosiblik muammolari saqlanib qolmoqda. Ayrim mintaqalarga malakali ishchi kuchi va yuqori infratuzilma tufayli boshqa hududlarga qaraganda ko'proq to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb qilingan. Tadqiqot natijalari shuni

ko'rsatdiki, asosiy sabablar tabiiy resurslarning yetishmasligi, infratuzilmaning rivojlanishi darajasi va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qiluvchi malakali ishchi kuchining yetishmasligi kabilar. Bu esa iqtisodiy o'sishni ta'minlashda mintaqaviy nomutanosiblikni keltirib chiqaradi. Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YaIM hajmi past mintaqalarda iqtisodiy faoliyat, ishlab chiqarish va daromad keltiradigan boshqa faoliyat turlarida muammolar mavjudligi bilan izohlanadi. Shu sababli, infratuzilma va kommunal xizmatlarni rivojlantirish iqtisodiy o'sishning mintaqaviy nomutanosibligini kamaytirish va ushbu hududlarda tarkibiy iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish bo'yicha tegishli siyosatni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

6. O'zbekistonning CRAM modelidagi o'rtacha xavf-xatar darajasi uning qisqa muddatli to'lov qobiliyatini ta'minlashga qodirligini ko'rsatdi. Bunda, o'rta va uzoq muddatli xavf-xatarlar, xususan, tashqi qarzning o'sishi, savdo balansidagi taqchillik va eksportning xom ashyoga bog'liqligi e'tiborga olinishi lozim. Ushbu omillar mamlakatning xalqaro moliyaviy bozorlardagi ishonchliligiga va investorlar uchun jozibadorligiga ta'sir qiladi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.01.2021.I.16.03 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ  
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ  
ЭКОНОМИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

---

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ  
УНИВЕРСИТЕТ**

**КОДИРОВ УРАЛ САФАР УГЛИ**

**НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ АНАЛИЗА РИСКОВ,  
ПРИСУЩИХ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКЕ**

**08.00.01 – Экономическая теория**

**08.00.02 – Макроэкономика**

**АВТОРЕФЕРАТ**

**диссертации доктора философии (PhD) по экономическим наукам**

**Ташкент–2025**

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией за номером / B2025.2.PhD/Iqt5318.

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном экономическом университете.  
Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещен на веб-сайте Научного совета ([www.tsue.uz](http://www.tsue.uz)) и на Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)).

**Научный руководитель:**

**Расулев Алишер Файзиевич**  
доктор экономических наук, профессор

**Официальные оппоненты:**

**Абдуллаев Сузон Артикович**  
доктор экономических наук, профессор  
**Абдурахимова Саида Ахмаджановна**  
доктор экономических наук, профессор

**Ведущая организация:**

**Андижанский государственный университет**

Защита диссертации состоится «8» 10 2025 года в 14<sup>00</sup> часов на заседании Научного совета DSc.03/30.01.2021.I.16.03 по присуждению ученых степеней при Ташкентском государственном экономическом университете. Адрес: 100066, г.Ташкент, ул. Ислама Каримова, 49. Тел.: (99872) 239-28-72; факс: (99872) 239-01-49, (99872) 239-43-51. e-mail: [info@tsue.uz](mailto:info@tsue.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного экономического университета (зарегистрирован под номером 1769). Адрес: 100003, г.Ташкент, ул. Ислама Каримова, 49. Тел.: (99872) 239-88-72; факс: (99871) 239-43-51. e-mail: [info@tsue.uz](mailto:info@tsue.uz).

Автореферат диссертации разослан «22» 09 2025 года.  
(реестр протокола рассылки № 91 от «22» 09 2025 года.)



**С.К. Худойкулов**  
Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней,  
д.э.н., профессор

**Б.Э. Мамарахимов**  
Секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней,  
д.э.н., профессор

**У.В. Гафуров**  
Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней,  
д.э.н., профессор

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** Мировое сообщество сегодня испытывает значительные сбои в глобальных экономических производственных цепочках, а также в процессах международного разделения труда из-за последствий пандемии COVID-19 и различных геополитических конфликтов между странами. Подобные негативные обстоятельства ставят национальную экономику в опасное положение с точки зрения воздействия. Вместе с тем такая напряженность диктует необходимость укрепления экономических связей страны с другими странами, сохранения и укрепления ее позиций в мире, создания благоприятного инвестиционного климата в стране, выявления, анализа, оценки рисков, присущих странам. По данным Всемирного банка, «страны сталкиваются с серьезными проблемами, такими как замедление экономического роста, усиление финансовых ограничений, повышение уровня долга в странах, сокращение частных инвестиций и сокращение международной помощи развивающимся странам»<sup>26</sup>. По данным Международного валютного фонда, «темпы мирового экономического роста на конец 2024 года составили 3,3 процента по сравнению с 1,7 процентами в развитых странах и 4,4 процентами в странах с переходной экономикой. А в 2025 году глобальный экономический рост прогнозируется на уровне 2,8 процентов»<sup>27</sup>. Все это требует дальнейшего совершенствования научно-теоретических основ анализа рисков, присущих национальной экономике.

В исследовательских сферах ведущих международных образовательных и научно-исследовательских учреждений проводятся научно-практические исследования, направленные на анализ и оценку рисков, влияющих на экономику стран. Вопросы, связанные с анализом влияния изменений объемов прямых иностранных инвестиций, поступающих в страну, на инвестиционный климат в стране, влияния изменений финансовых, политических и экономических факторов на экономическую безопасность страны, анализом влияния изменений уровня экономической свободы страны на инвестиционный климат, анализом различий в фискальном балансе государства, погашением внешнего долга государства, являются приоритетными направлениями исследований в этой области.

Экономические реформы, проводимые в Узбекистане, в частности меры, направленные на либерализацию экономики и развитие частного сектора, способствуют повышению надежности страны на международных финансовых рынках. В то же время обеспечение устойчивого экономического роста в стране требует анализа рисков, присущих странам, создания благоприятного инвестиционного климата, выявления и анализа рисков, связанных с внешним долгом, конвертацией валют и платежеспособностью. Сегодня, когда внешний долг страны растет, важное

---

<sup>26</sup> World Bank Report (2023) "Evolution of the World Bank Group – A Report to Governors," for the April 12, 2023 Development Committee Meeting. DC2023-0002

<sup>27</sup> International Monetary Fund. 2024. Real GDP growth. [https://www.imf.org/external/datamapper/ngdp\\_rpch@weo/oemdc/advoc/weoworld](https://www.imf.org/external/datamapper/ngdp_rpch@weo/oemdc/advoc/weoworld)

значение приобретает проведение государством глубоко продуманной перспективной политики. В частности, одним из актуальных вопросов является поддержание установленной нормы внешнего долга страны по отношению к ВВП, обеспечение того, чтобы фискальный баланс находился в установленной норме, платежный баланс, уровень инфляции и безработицы находились в установленной норме, увеличение объемов прямых иностранных инвестиций, поступающих в страну. Это обусловлено тем, что в Узбекистане до сих пор не проведено достаточного количества исследований, связанных с анализом рисков для конкретных стран, с точки зрения принятия важных инвестиционных решений, а также анализа этих рисков на основе современных моделей и методологий.

